

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 3 Июль

Tilshunoslikda termin va so‘zning o’rni

Raximova Go’zal Yuldashevna,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasи dotsenti , Urganch davlat universiteti , O’zbekiston

Bakhtiyarova Gulasal,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti bo’limi talabasi , Urganch davlat universiteti , O’zbekiston

Kirish

Termin gapdan tashqarida olinganda ham ma’lum bir aniq ma’no ifodalaydigan, insonning ma’lum ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni bildiradigan so‘z yoki turg‘un holatdagi so‘z birikmasidir. Uning asl lug‘aviy ma’nosi ham shuni anglatadi: lotin tilida *terminus* so‘zi “chegara belgisi, chek, chegara” degan ma’nolarni ifodalaydi. Ishlatilishi chegaralangan maxsus leksikaga terminlar, kasb-hunar leksikasi, jargonlar kiradi.

Terminologiya so‘zi Germaniyada birinchi marta professor SHyuts tomonidan 1786 yili qo‘llagan, fransiyada bu so‘z XVIII asrda paydo bo‘lgan, ingliz tilida esa Katta Oksford lug‘atidagi ma’lumotga ko‘ra, birinchi marta 1807 yili qayd etilgan... Rus tilshunosligida 1989 yildan muayyan bilim sohasiga oid maxsus so‘zlarning jamini “terminologiya”deb nomlash, terminlarni o‘rganadigan fan nomini terminshunoslik (“terminovedenie”) deb atash barqarorlashdi. O‘zbek tilshunosligida ham “terminologiya” va “terminshunoslik” terminlari shu tarzda farqli tushunchalarni ifodolash uchun qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir¹.

Maxsus leksikaga kirgan leksemalarning ishlatilishi chegaralangandir. Ammo maxsus leksika adabiy til lug‘atini boyitish manbalaridan hisoblanadi. Maxsus leksikaning asosiy qismini terminlar tashkil qiladi. Bu maxsus leksik birliklar terminlarga oid bo‘lgan sistema ekanligi, ma’lum tartibga solinganligi, ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi belgisiga ega. “Termin – til birligi bo‘lib, so‘z yoki so‘z birikmasi orqali ifodalanadigan, ma’lum

¹ Маҳмудов Н. Илмий матнда термин таносиби ва такомили. //Ўзбек тили ва адабиёти .- Т., 2020. -Б.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 3 Июль

sistemani tashkil qiladigan, funksional ahamiyatga ega, aniq ilmiy yoki ishlab chiqarish sohasida konvension yaratiladigan, potensional standartlangan tilning leksik sistemasi elementi”².

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Termin haqidagi yana bir e’tiborga molik ta’rif V.M.Leychik tomonidan aytilgan: “Termin – maxsus ilm yoki faoliyatda konkret yoki abstrakt nazariy tushunchalarni ifodalovchi, ma’lum tilning maxsus maqsad uchun ishlatiladigan leksik birligi”³. Ko‘rinadiki, termin xohlagan tilning emas, ma’lum maqsad uchun ishlatiladigan tilning birligidir. Bundan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- 1) termin so‘z va so‘z birikmalarining hamma semantik va formal belgilariga ega;
- 2) terminlar u yoki bu tilning leksikasida emas, faqat maxsus maqsad uchun ishlatiladigan tilning leksikasida faoliyat ko‘rsatadi;
- 3) maxsus maqsad uchun mo‘ljallangan til leksikasida kognitsiya natijasida maxsus ilm yoki faoliyat sohasida umumtushunchalarni ifodalash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi;
- 4) terminlar terminologik sistema elementi hisoblanib, maxsus sohalarning nazariy modellarini ko‘rsatadi.

V.M.Leychikning fikricha, lingvistik aspektida terminologik ma’no qanday ma’no bo‘lmasin, u asosiy yoki qo‘srimcha ma’nomi, birlamchi yoki ikkilamchi ma’nomi baribir, leksik birliklarning semantik strukturasida qanday o‘rin egallashi muhim masaladir. Izohli terminologik lug‘atlarni tahlil qilish orqali bu masalani hal qilish uchun lozim.⁴ Bizningcha, ma’lum ilm sohasida qadimdan mavjud bo‘lgan va yangi terminlarni solishtirish ham katta ahamiyatga ega. Chunki bu bilan ma’lum ilm sohasi doirasida yangi bo‘limlarning rivojlanishi natijasida invariant va variant munosabatini o‘rganish mumkin.

V.V.Vinogradov so‘zlarning terminologik ma’nosи, so‘zlarning ilmiy ma’nosи, so‘zlarning maxsus ma’nosи, bular bir-biriga yaqin bo‘lgan

² Евлова З.И. *Русская лингвистическая терминология в эволютивном аспекте: Автограф. дис. ... канд. филол. наук. – Нальчик, 2006.–с.8*

³ Лейчик В.М. *Терминоведение. Предмет, методы, структура.* – М., 2009 – с. 31

⁴ Лейчик В.М. *Терминоведение. Предмет, методы, структура.* – М., 2009 – с.31-32

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 7, 3 Июль**

tushunchalardir, deb aytadi.⁵

L.L.Nelyubin terminni ajratish uchun quyidagi mezonlarni taklif qiladi:

1.Termin – maxsus (ilmiy, xarbiy) tilga oid bo‘lib, u (yasalgan, boshqa tildan qabul qilingan) ma’lum tushuncha va predmetni aniq ifodalash uchun xizmat qiluvchi so‘z yoki so‘z birikmasi.

2.Modulyasiya bo‘lmaydigan so‘z.

3.Ijtimoiy hayot, texnika, san’at va ilm sohasida ma’lum tushunchani aniq ifodalaydigan so‘z yoki so‘z birikmasi.

4.Ma’lum ilmiy yoki texnik sohaning ilmiy tushunchani ifodalovchi belgisi bilan o‘sha sohaning semantik sistemasiga kiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasidir.⁶

Tahlil va natijalar

Demak, termin hamma so‘zlar kabi so‘z bo‘lib, u ham ma’lum bir mustaqil tushuncha anglatadi va bir yoki bir necha nutq tovushining birikishidan iborat bo‘lgan bir vosita hisoblanadi. Tushunishda qiyinchilik tug‘diradigan holatlar ham bor, bu holatda so‘z yoki so‘z birikmasi umumis’temolda ham bo‘lib, shu bilan birga ma’lum bir terminologik sistemaga ham kirishi mumkin. Yana bir muammo shundan iboratki, har xil ensiklopedik lug‘atlarda ma’lum bir terminga turlicha ta’rif berilgan. Bunday murakkabliklar nafaqat har xil, balki ayni bitta lug‘atda ham ko‘rish mumkin: 1) umumiyyat – *maxsus (spets.)*; 2) ishlatiladigan soha markerlangan bo‘ladi – *matem, geog.,texn., gram., filos. lingvistikada, grammaticada* kabi. Ba’zan maxsus leksemani (terminlarni) *kitobiy* belgisi, *og‘zaki* belgisi (kasb-hunar leksikasi) ham qo‘yiladi.⁷

Ko‘rinadiki, adabiy til lug‘atlarida maxsus leksikani tushunishda lug‘at tuzuvchining assotsiativ qarashlari ustunlik qilmoqda. Bunday shunday fikrga olib keladiki, terminologik lug‘atlarni tuzishda lingvistlar bilan birga ma’lum soha vakillari birgalikda jamoa bo‘lib ishlashi lozim.

Hozirgi zamон tilshunoslik talabiga ko‘ra terminning leksik birlik

⁵Бу ҳақда қар.: Немықа А.А. Метаязық лингвистики: научное и художественное представления: Дисс. док. филол. наук. – Орел, 2015. – С.60

⁶Немықа А.А. Ўша асар. – С.72.

⁷Немықа А.А., Ушаков А.А. Дискурсивное пронстранство текста: троллинг как элемент некооперативной речевой стратегии современной интернет-коммуникации //Вестник Российского университета дружбы народов. Сер.Вопросы образования: языки и специальность. – 2012. – №4. – С. 68.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 7, 3 Июль

sifatidagi maqomini qayta ko'rib chiqishga, uning potensial hajmini va definitsiyalarning sifatiy boyishini aniqlashga to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida terminlarning leksikografik manbalarda ifodalashning yangi modellashtirish tamoyillarini ishlab chiqishga olib keladi. Turli soha mutaxassislarining tuzgan yangi zamon terminologik lug'atlarda bilimlarning ekstrapolyasiysi va zamonaviy integratsiya tendensiyalari namoyon bo'lmoqdaki, unda bir ob'ekt yoki hodisaning turli aspektlarda o'r ganilishi kuzatilmoqda. Informatsion texnologiyalarning faol rivojlanishi, zamonning yangi talablari, fanning umumiy taraqqiyoti borliqning kognitiv modelini ko'rsatish uchun terminologik tushunchaning yangi shakllarini izlashga majbur qiladi. A.A.Nemikaning fikricha ilmiy termin faqat bir til nuktai nazaridan kompleks o'r ganish ob'ekti bo'la olmaydi.⁸

Xulosa

Termin maxsus leksikaga kirgani bilan umumiste'mol so'z qatorida ishlatilsa ham odatdagi so'z bilan aynan bir narsa emas.

Ma'lumki, o'tmishda Yevropada ilm-fanning dastlabki yaratuvchilar bo'lgan qadimgi greklarda va rimliklarda termin fanu tushunchalarini ifodalovchi so'zlar sifatida qo'llangan bo'lsa ham, bizning zamonamizga kelib bu tushuncha o'zgarishlarga uchradi: ko'pgina olimlar termin so'zining ma'nosini avvalgicha, ya'ni ma'lum fan va fan bilan bog'langan texnika, san'at va madaniyatga oid hodisalar bilan belgilasalar, ba'zi bir olimlar har qanday ot ni termin deb hisoblashga tayyordirlar. Bu jihatdan ular termin so'zini morfologiyadagi ot so'zining ekvivalenti – sinonimiga aylantirib qo'yadilar.

Terminni otning sinonimi deb hisoblovchilar, aslida, ingliz faylasuflarining, so'ngra G.I.Chepanovning "Mantiq" darsligidagi (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o'n martadan ortiq nashr qilingan) fikrlarini takrorlaydilar.

Ingliz faylasuflarining fikricha, «mantiqda tushunchalar haqida emas, terminlar, nomlar yoki terminlar haqida gapirish maqsadga muvofiqdir»⁹. Ingliz tilidagi *beautiful, delivery, ever, unbeautiful, undelivery, forever* so'zlari

⁸Немыка А.А. *Ассоциативное поле предметной области языкознания как лингводидактическая проблема* // Культурная жизнь Юга России. – 2009. – № 5 (34). – С. 86.

⁹Челпанов Г.И. Учебник логики. – М., 1946. . – С.8.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 7, 3 Июль

bo‘lishli (positive) va bo‘lishsiz (negative) terminlardir¹⁰.

Demak, mantiqshunos uchun termin mantiqiy muhokama elementi bo‘lib, uning faqat ot bilan ifodalanishi shart emas. Ammo tilshunos terminni bu xilda tushunmasligi kerak. Tilshunoslikda hamma terminlarni, shu hisobdan, odatdagи sifatlarni ham terminga kiritish terminning doirasini asossiz ravishda kengaytirib yuborish bo‘ldi. Hozirgi mantiqshunoslар terminni bu xilda keng ma’noda, ya’ni so‘z ma’nosida qo‘llamaydilar. Termin so‘zlarning bir xili, ammo hamma otlar (ayniqsa, sifatlar) ham termin deb hisoblanmasligi lozim.

¹⁰Челпанов Г.И. Ўша асар. — Б. 11.